“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=357

2026-yil
3-son
mart
ISSN 3093-8546



Qo‘riqlanadigan obyektlarning kiberxavfsizligini ta’minlash bo‘yicha fuqarolik-huquqiy shartnomalarning zarurati va ahamiyati

Baxodirxo‘ja Saidov,
O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: bahodirxujasaidov@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada qo‘riqlanadigan obyektlarning kiberxavfsizligini ta’minlash sohasida fuqarolik-huquqiy shartnomalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va axborot infratuzilmalarining kengayishi sharoitida kiberxavfsizlikni ta’minlash davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarning muhim yo‘nalishiga aylanmoqda. Tadqiqotda kiberxavfsizlik xizmatlarini ko‘rsatish, axborot tizimlarini himoya qilish, ma’lumotlarni saqlash va monitoring qilish bo‘yicha tuziladigan fuqarolik-huquqiy shartnomalarning huquqiy tabiati, ularning funksiyalari va amaliy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, qo‘riqlanadigan obyektlarning axborot xavfsizligini ta’minlashda shartnomaviy mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ilgari suriladi.

Калит сўзлар. kiberxavfsizlik, qo‘riqlanadigan obyektlar, fuqarolik-huquqiy shartnoma, axborot xavfsizligi, raqamli infratuzilma, shartnomaviy munosabatlar, axborot tizimlarini himoya qilish, kiberxavfsizlik xizmatlari

Аннотация. В данной статье анализируются роль и значение гражданско-правовых договоров в обеспечении кибербезопасности охраняемых объектов.В условиях стремительного развития цифровых технологий и расширения информационной инфраструктуры обеспечение кибербезопасности становится важным направлением договорных отношений между государственными органами и частным сектором. В исследовании раскрывается правовая природа гражданско-правовых договоров, заключаемых для оказания услуг в сфере кибербезопасности, защиты информационных систем, хранения данных и мониторинга информационных ресурсов. Особое внимание уделяется значению договорных механизмов в обеспечении информационной безопасности охраняемых объектов, а также предлагаются научные рекомендации по совершенствованию правового регулирования данных отношений.

Ключевые слова. кибербезопасность, охраняемые объекты, гражданско-правовой договор, информационная безопасность, цифровая

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

инфраструктура, договорные отношения, защита информационных систем, услуги в сфере кибербезопасности

Annotation. This article examines the necessity and significance of civil law contracts in ensuring the cybersecurity of protected objects. In the context of the rapid development of digital technologies and the expansion of information infrastructures, cybersecurity has become an essential area of contractual relations between public authorities and private entities. The study analyzes the legal nature of civil law contracts concluded for the provision of cybersecurity services, protection of information systems, data storage, and monitoring of digital infrastructures. Particular attention is given to the role of contractual mechanisms in strengthening the information security of protected objects. The article also proposes scientific recommendations aimed at improving the legal regulation of cybersecurity relations within the framework of civil law.

Keywords. cybersecurity, protected objects, civil law contract, information security, digital infrastructure, contractual relations, protection of information systems, cybersecurity services

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan huquqiy asoslar izchil takomillashtirilmoqda. Xususan, 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan kiberxavfsizlik strategiyasining qabul qilinishi kiberxavfsizlik sohasidagi institusional va huquqiy mexanizmlarni rivojlantirishga qaratilgan muhim qadam hisoblanadi. Mazkur jarayonda qo‘riqlanadigan ob’yektlarning axborot infratuzilmasini muhofaza qilishda davlat organlari bilan bir qatorda xususiy sektor sub’yektlari, axborot texnologiyalari kompaniyalari va kiberxavfsizlik xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashkilotlarning ishtiroki tobora ortib bormoqda. Bu esa ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solishda fuqarolik-huquqiy shartnomalarning o‘rni va ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Qo‘riqlanadigan obyektlarning kiberxavfsizligini ta’minlash ko‘p hollarda maxsus texnik xizmatlar, axborot tizimlarini muhofaza qilish, ma’lumotlarni zaxiralash, monitoring va audit ishlarini amalga oshirishni talab etadi. Bunday xizmatlar esa, odatda, fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Shu bois mazkur munosabatlarning huquqiy tabiatini tahlil qilish, shartnomaviy mexanizmlarning samaradorligini baholash va ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur mavzuning dolzarbligi yana shundaki, amalda kiberxavfsizlik sohasida tuziladigan shartnomalarning huquqiy modeli, ularning mazmuni va huquqiy mexanizmlari yetarli darajada nazariy asoslanmagan. Natijada, kiberxavfsizlik xizmatlari bilan bog‘liq shartnomaviy munosabatlarda huquqiy noaniqliklar va amaliy muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois qo‘riqlanadigan ob’yektlarning kiberxavfsizligini ta’minlash bo‘yicha fuqarolik-huquqiy shartnomalarning zarurati, huquqiy tabiati va ahamiyatini ilmiy tahlil qilish, shuningdek mazkur sohadagi shartnomaviy mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish zamonaviy fuqarolik huquqi

ilmining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

“Qo‘riqlash” xizmati bilan tashkilotlar va fuqarolar o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlar, normativ-huquqiy hujjatlar bilan bir qatorda, shartnomalar asosida ham tartibga solinadi. Shu bois har bir fao- liyat natijasi va uning muvafaqqiyati tomonlar o‘rtasida tuzilgan shartnomaning mazmunan mukammalligiga va qay darajada rasmiylashtirilganligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shu o‘rinda nafaqat shartnomaviy munosabatlar, balki umuman barcha “huquqiy munosabatlar, bir tomondan, jamiyat ijtimoiy va huquqiy rivojlanishining darajasi bilan belgilanadi, boshqa tomondan esa uning huquqiy madaniyati va huquqiy ongini aks ettiradi”[1:17].

Shu sababli, barcha mulk shakllarini qo‘riqlashga doir shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirishda, avvalo, uning ishtirokchilari shartnoma munosabatlariga alohida e’tibor berib, ularni to‘g‘ri tuzish hamda belgilangan majburiyatlarni bajarishga bevosita e’tibor qaratishlari lozim. Chunki muayyan bir fuqaro yoki tashkilotga qarashli obyektni qo‘riqlash faoliyatini amalga oshirishda tomonlarning huquq va majburiyatlari, ularning javobgarligi, bajariladigan xizmatlar haqi, muddati va boshqa shu kabi shartlar aynan shartnomada aniq aks ettiriladi. Shu bilan birga, shartnoma bilan vujudga keltirilgan huquqiy munosabat davomida shartnoma taraflarning xatti-harakatlari qanchalik qonunga muvofiq bo‘lgan bo‘lmaganligini ham tekshirish imkoniyatini beradi [2:134-138]. Fuqarolik kodeksining 703-moddasida “haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi”ga berilgan ta’rifdan kelib chiqqan holda, fikrimizcha, taraflardan biri (“Qo‘riqlash” xizmati) shartlashilgan muddatda xizmatlar ko‘rsatish, ya’ni mulk yoki boshqa obyektni qo‘riqlash majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf (“buyurtmachi” tashkilotlar, fuqarolar) esa xizmatlarni qabul qilib olish hamda ularning haqini to‘lash majburiyatini oladigan kelishuvni qo‘riqlash shartnomasi deb atash mumkin.

Mazkur shartnoma mohiyatan va mazmunan fuqaroviy-huquqiy shartnomalar tarkibiga kiradi. Qo‘riqlash shartnomasi, avvalambor, taraflarning manfaati doirasida birgalikda harakat qilish uchun o‘zaro kelishuvni ifoda etuvchi yuridik kuchga ega bo‘lgan hujjat hisoblanadi. Boshqacha aytganda, o‘zaro kelishuv bo‘lmasa, shartnoma ham tuzilmaydi[3:20]. E’tibor qilinsa, fuqarolik shartnomasiga berilgan ta’rif ham buni tasdiqlaydi, ya’ni ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish va bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi (FKning 353-moddasi). Umuman, shartnoma nafaqat rasmiy hujjat, balki birinchi galda, ma’naviy hamda moddiy ehtiyoj va manfaatlarni qondirish maqsadlarida tomonlarning ixtiyoriy kelishuvlarini ifodalaydigan hujjatdir, chunki ehtiyoj va manfaat subyektiv fuqarolik huquqlarini amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi[4:19]. Chor Rossiyasining ag‘darilishiga qadar, huquq tizimida shartnoma deb huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, o‘zgartirish va bekor qilishga qaratilgan ikki yoki undan ortiq shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro kelishuvlarga aytilgan. Bundan hozirgi davrda qonunda mazmunan inqilobgacha amalda bo‘lgan fuqarolik huquqidagi shartnoma shakliga qaytilmoqda degan xulosaga kelish mumkin[5:93].

Mualliflar tomonidan qo‘riqlash xizmati sohasida vujudga keladigan munosabatlarni asosan fuqarolik-huquqiy shartnomalar orqali tartibga solinishi haqida bildirilgan fikrlar umumiy ma’noda asosli hisoblanadi. Darhaqiqat, mulk va boshqa obyektlarni qo‘riqlash xizmatlari amalda ko‘p

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

hollarda haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi doirasida amalga oshiriladi va bu holat O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 703-moddasida nazarda tutilgan huquqiy konstruksiya bilan uyg‘unlashadi. Shu jihatdan, qo‘riqlash xizmati ko‘rsatish munosabatlarini fuqarolik-huquqiy shartnomalar orqali tartibga solish mazkur sohadagi huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq mualliflar tomonidan qo‘riqlash shartnomasining mazmuni va huquqiy tabiatiga nisbatan berilgan ba’zi xulosalar muayyan darajada bahsli ko‘rinadi. Xususan, qo‘riqlash shartnomasini faqatgina xizmat ko‘rsatish shartnomasi sifatida baholash masalasi shartli xarakterga ega. Chunki qo‘riqlash faoliyati mazmunan faqat xizmat ko‘rsatish bilan cheklanib qolmay, u xavfsizlikni ta’minlash, profilaktik nazoratni amalga oshirish, texnik vositalardan foydalanish, shuningdek muayyan hollarda jamoat tartibini saqlash bilan bog‘liq elementlarni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli mazkur munosabatlar ayrim hollarda ommaviy-huquqiy elementlar bilan ham bog‘lanishi mumkin. Demak, qo‘riqlash shartnomasining huquqiy tabiatini faqat fuqarolik-huquqiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi sifatida talqin qilish uning kompleks xususiyatini to‘liq ochib bermasligi mumkin.

Bundan tashqari, mualliflar shartnomaning mazmunan mukammalligi va to‘g‘ri rasmiylashtirilishi qo‘riqlash faoliyati samaradorligining asosiy sharti ekanligini ta’kidlaydilar. Albatta, shartnoma mazmunining aniq va puxta belgilanishi taraflar o‘rtasidagi huquq va majburiyatlarning aniq taqsimlanishini ta’minlaydi. Biroq kiberxavfsizlik va zamonaviy axborot texnologiyalari sharoitida qo‘riqlash faoliyati samaradorligi faqat shartnoma mazmunigagina emas, balki texnik imkoniyatlar, xavfsizlik standartlari, axborot muhofazasi tizimlari hamda institusional mexanizmlarga ham bevosita bog‘liqdir. Shu bois mazkur sohadagi munosabatlarni tahlil qilishda shartnomaviy mexanizmlar bilan bir qatorda, texnologik va tashkiliy omillarni ham inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mualliflar tomonidan shartnomaning tarixiy-huquqiy mohiyatiga doir fikrlar ham muayyan darajada umumlashtirilgan xarakterga ega. Xususan, chor Rossiyasi davridagi shartnoma tushunchasi bilan zamonaviy fuqarolik huquqidagi shartnoma konsepsiyasini bevosita qiyoslash ilmiy jihatdan to‘liq asoslanmagan. Chunki zamonaviy fuqarolik huquqida shartnoma instituti bozor iqtisodiyoti, xususiy mulk va erkin iqtisodiy munosabatlar sharoitida shakllangan bo‘lib, uning mazmuni va funksiyalari tarixiy davrlar davomida jiddiy evolyusiyaga uchragan. Shu nuqtai nazardan, hozirgi huquqiy tizimda shartnoma institutining rivojlanishini “inqilobgacha bo‘lgan shaklga qaytish” sifatida baholashdan ko‘ra, uning huquqiy tabiatining rivojlanishi va takomillashuvi sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan maqbulroq hisoblanadi. Shunday qilib, qo‘riqlash xizmati sohasidagi shartnomaviy munosabatlar fuqarolik huquqining muhim institutlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq mazkur munosabatlarning huquqiy tabiati va mazmunini tahlil qilishda ularning kompleks xususiyati, ya’ni fuqarolik-huquqiy, tashkiliy va ayrim hollarda ommaviy-huquqiy elementlarni qamrab olishini hisobga olish zarur. Bu esa qo‘riqlash faoliyatini huquqiy tartibga solishning nazariy asoslarini yanada chuqurlashtirishni talab etadi.

Kiberxavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq munosabatlar amalda davlat organlari, tashkilotlar va maxsus ixtisoslashgan axborot texnologiyalari

kompaniyalari o‘rtasida tuziladigan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Bunday shartnomalar axborot tizimlarini muhofaza qilish, kiberhujumlarning oldini olish, ma’lumotlar bazalarini himoya qilish, axborot resurslarini monitoring qilish va texnik audit o‘tkazish kabi xizmatlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Shu jihatdan, kiberxavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan shartnomalar fuqarolik-huquqiy shartnomalar tizimida alohida ahamiyatga ega.

Ushbu shartnomaning mazmunini tahlil qilgan holda unga quyidagicha ta’rif berish mumkin: kiberxavfsizlikni ta’minlash shartnomasi – bu bir taraf (kiberxavfsizlik xizmatini ko‘rsatuvchi tashkilot) shartlashilgan muddatda buyurtmachi tashkilotning axborot tizimlari, raqamli infratuzilmalari va ma’lumotlar bazalarini kibertahdidlardan muhofaza qilish, axborot xavfsizligini ta’minlash va texnik monitoring ishlarini amalga oshirish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf (buyurtmachi) esa mazkur xizmatlarni qabul qilib olish va belgilangan haqni to‘lash majburiyatini oladigan fuqarolik-huquqiy kelishuvdir[6:99].

Kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha shartnomalarni tuzish uchun buyurtmachi sifatida ishtirok etuvchi tashkilotlar quyidagi talablarga javob berishi lozim: birinchidan, ular yuridik shaxs yoki qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyekti bo‘lishi; ikkinchidan, mazkur shartnoma ularning ta’sis hujjatlari va faoliyat yo‘nalishiga zid bo‘lmasligi lozim.

Kiberxavfsizlikni ta’minlash shartnomasini fuqarolik huquqi nuqtai nazaridan tahlil qilganda, u quyidagi huquqiy belgilarga ega ekanligini ko‘rish mumkin.

Birinchidan, mazkur shartnoma konsensual shartnoma hisoblanadi. Chunki u taraflarning o‘zaro kelishuvga erishishi va ushbu kelishuv belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi paytida vujudga keladi.

Ikkinchidan, shartnomada ishtirok etuvchi taraflarning huquq va majburiyatlari o‘zaro taqsimlanganligi sababli, u ikki tomonlama shartnoma hisoblanadi. Bunda buyurtmachi axborot tizimlarining xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatilishini talab qilish huquqiga ega bo‘ladi va buning evaziga xizmat haqini to‘lash majburiyatini oladi. Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot esa kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish majburiyatini oladi hamda ko‘rsatilgan xizmat uchun haq talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, mazkur shartnoma haq evaziga tuziladigan (pulli) shartnomalar turiga kiradi. Ya’ni kiberxavfsizlik xizmatlari ko‘rsatilgani uchun buyurtmachi tomonidan belgilangan tariflar asosida haq to‘lanadi.

To‘rtinchidan, kiberxavfsizlik shartnomalari profilaktik xususiyatga ega bo‘ladi. Chunki bunday shartnomalarning asosiy maqsadi axborot tizimlariga noqonuniy kirish, ma’lumotlarni o‘g‘irlash, virusli dasturlar tarqatish yoki boshqa kiberhujumlarning oldini olishdan iborat[7]. Muallif tomonidan kiberxavfsizlikni ta’minlash shartnomasining fuqarolik-huquqiy tabiatiga doir bildirilgan fikrlar, ayniqsa uning konsensual, ikki tomonlama va haq evaziga tuziladigan shartnoma ekanligi haqidagi xulosalar umumiy nazariy qoidalarga mos keladi. Darhaqiqat, fuqarolik huquqida xizmat ko‘rsatishga oid shartnomalar, jumladan axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan shartnomalar ham taraflarning o‘zaro kelishuvi asosida vujudga keladi hamda

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ularda huquq va majburiyatlar o‘zaro taqsimlanadi. Shu nuqtai nazardan, kiberxavfsizlik xizmatlarini ko‘rsatish munosabatlarini fuqarolik-huquqiy shartnomalar doirasida talqin qilish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Biroq muallif tomonidan shartnomaning huquqiy belgilarini faqat umumiy fuqarolik-huquqiy kategoriyalar – konsensuallik, ikki tomonlamalik va haq evaziga tuzilishi bilan cheklab qo‘yish muayyan darajada tor yondashuv sifatida baholanishi mumkin. Chunki kiberxavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan shartnomalarning mazmuni an’anaviy xizmat ko‘rsatish shartnomalaridan muayyan jihatlari bilan farq qiladi. Xususan, bunday shartnomalarda xizmat ko‘rsatuvchining faoliyati ko‘p hollarda natijaga emas, balki xavfni kamaytirishga va axborot tizimlarining barqaror ishlashini ta’minlashga qaratilgan jarayonga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois mazkur shartnomalarni faqat “xizmat ko‘rsatish shartnomasi” modeli doirasida talqin qilish uning huquqiy mazmunini to‘liq ochib bermasligi mumkin. Muallif tomonidan kiberxavfsizlik shartnomalarining profilaktik xususiyatga ega ekanligi haqida bildirilgan fikr esa muayyan darajada to‘g‘ri bo‘lsa-da, uni yanada kengroq talqin qilish maqsadga muvofiq. Chunki kiberxavfsizlik xizmatlari faqatgina huquqbuzarliklarning oldini olish bilan cheklanib qolmaydi, balki axborot tizimlarida yuzaga kelgan xavfsizlik insidentlarini aniqlash, tahlil qilish, ularni bartaraf etish va tizimni qayta tiklash kabi vazifalarni ham qamrab oladi. Demak, kiberxavfsizlik shartnomalari profilaktik xususiyat bilan bir qatorda, reaktiv va tiklovchi funksiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Bu esa mazkur shartnomalarni fuqarolik huquqi nuqtai nazaridan kompleks xizmat ko‘rsatish munosabatlari sifatida baholashni taqozo etadi.

Shu bilan birga, kiberxavfsizlik shartnomalarini tahlil qilishda yana bir muhim jihat – shartnomaviy javobgarlik va xavflarni taqsimlash masalasiga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Amaliyotda kiberhujumlar natijasida yetkazilgan zararni kim qoplashi, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotning mas’uliyati qay darajada belgilanishi, shuningdek axborot xavfsizligi bo‘yicha standartlarga rioya etilmagan hollarda yuzaga keladigan huquqiy oqibatlar kabi masalalar katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli kiberxavfsizlik shartnomalarini tahlil qilishda ularning javobgarlik mexanizmi, texnik talablar va xavflarni boshqarish shartlari ham alohida ko‘rib chiqilishi lozim. Mazkur fikrlarni inobatga olgan holda, kiberxavfsizlikni ta’minlash shartnomalarini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Kiberxavfsizlik xizmatlarini ko‘rsatishga oid shartnomalarda xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotning vazifalari, axborot tizimlarini muhofaza qilish choralari va texnik standartlarini aniq belgilash lozim.

Shartnomada kiberhujumlar yoki axborot xavfsizligi insidentlari yuzaga kelgan hollarda taraflarning javobgarligi va zararni qoplash tartibi aniq ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq.

Kiberxavfsizlik shartnomalarida profilaktik choralar bilan bir qatorda, insidentlarni aniqlash, bartaraf etish va axborot tizimlarini tiklashga doir xizmatlar ham nazarda tutilishi lozim.

Axborot xavfsizligi sohasidagi xalqaro standartlar va texnik reglamentlarni shartnoma shartlariga integratsiya qilish kiberxavfsizlikni ta’minlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kiberxavfsizlikni ta’minlash shartnomasining predmeti buyurtmachining axborot tizimlari, serverlari, ma’lumotlar bazalari va boshqa raqamli

infratuzilmalarini muhofaza qilish bo‘yicha xizmatlarni tashkil etish va amalga oshirishdan iborat.

Amaliyotda kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha xizmatlar ob’yektlarning xususiyatiga qarab turlicha amalga oshirilishi mumkin. Masalan, bank tizimlarini kiberxavfsizlik jihatdan muhofaza qilish tartibi savdo tashkilotlari yoki xizmat ko‘rsatish sohasiga tegishli axborot tizimlarini muhofaza qilish usullaridan farq qilishi mumkin. Ayrim hollarda axborot tizimlari doimiy monitoring orqali himoya qilinadi, boshqa hollarda esa maxsus texnik vositalar, kriptografik himoya usullari yoki axborot xavfsizligi auditlari orqali muhofaza qilinadi.

Shu bois kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha shartnomalarni ob’yektlarning xususiyati, axborot infratuzilmasining ahamiyati, qo‘llaniladigan texnik vositalar va xavf darajasidan kelib chiqqan holda turlarga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan:

yuridik shaxslarga tegishli axborot tizimlarini kiberxavfsizlik jihatdan muhofaza qilish shartnomalari;

tadbirkorlik subyektlarining raqamli infratuzilmalarini muhofaza qilish shartnomalari;

davlat organlari va strategik ahamiyatga ega axborot tizimlarini muhofaza qilish shartnomalari.

Bundan tashqari, kiberxavfsizlik shartnomalarini axborot resurslarining mulk shakliga qarab ham ajratish mumkin. Masalan:

– xususiy sektorga tegishli axborot tizimlarini muhofaza qilish shartnomalari;

– davlat axborot tizimlarini muhofaza qilish shartnomalari.

Shu bilan birga, axborot tizimlarini muhofaza qilish usullari ham turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, ayrim tashkilotlarda serverlar va ma’lumotlar bazalari doimiy kiber monitoring orqali himoya qilinadi, boshqa hollarda esa kriptografik himoya, identifikatsiya va autentifikatsiya tizimlari yoki kiberxavfsizlik auditlari qo‘llaniladi. Biroq axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan barcha axborot resurslari huquqiy jihatdan teng himoya qilinishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha namunaviy shartnomalarda axborot tizimlarining xususiyatidan kelib chiqqan holda ularni muhofaza qilish usullari, texnik talablar va taraflarning javobgarlik choralarini aniq belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot resurslari va ma’lumotlar bazalarini kibertahdidlardan muhofaza qilish davlat, jamiyat va iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, qo‘riqlanadigan ob’yektlarning kiberxavfsizligini ta’minlash zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning yangi va muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi, raqamli infratuzilmalar va ma’lumotlar bazalarining ko‘payishi natijasida axborot resurslarini turli kibertahdidlardan muhofaza qilish zarurati ortib bormoqda. Bunday sharoitda kiberxavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq munosabatlar ko‘p hollarda maxsus ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan xizmat ko‘rsatish asosida amalga oshirilib, ular fuqarolik-huquqiy shartnomalar orqali tartibga solinadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha shartnomalar fuqarolik-huquqiy shartnomalar tizimida konsensual, ikki tomonlama va haq evaziga tuziladigan shartnomalar qatoriga kiradi. Bunday shartnomalarning asosiy maqsadi buyurtmachi tashkilotlarning axborot tizimlari, raqamli infratuzilmalari va ma’lumotlar bazalarini kibertahdidlardan muhofaza qilish, ularning barqaror va xavfsiz faoliyatini ta’minlashdan iborat. Shu jihatdan, mazkur shartnomalar profilaktik xususiyatga ega bo‘lib, axborot tizimlariga noqonuniy kirish, ma’lumotlarni buzish yoki o‘g‘irlash kabi huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha shartnomalarning samaradorligi, avvalo, ularning mazmunida taraflarning huquq va majburiyatlari, javobgarlik choralari, axborot xavfsizligini ta’minlash usullari hamda texnik talablar aniq va puxta belgilanishiga bog‘liqdir. Shu bois mazkur sohada namunaviy shartnomalarni takomillashtirish, axborot tizimlarining xususiyatidan kelib chiqqan holda kiberxavfsizlik choralarini shartnomada aniq belgilash hamda shartnomaviy javobgarlik mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, qo‘riqlanadigan obyektlarning kiberxavfsizligini ta’minlash bo‘yicha fuqarolik-huquqiy shartnomalar raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot xavfsizligini ta’minlashning muhim huquqiy vositalaridan biri bo‘lib, ularni nazariy va amaliy jihatdan yanada takomillashtirish fuqarolik huquqi ilmining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Таджиханов У., Саидов А. Жамият ҳуқуқий маданияти назариясининг долзарб му- аммолари // Ҳуқуқ-Право. 1998. № 1. – Б. 17.

2. Рахманкулов М. Роль и сущность гражданско-правового договора в условиях рыночной экономики. – Т., 1994. – С. 134–138.

3. Завидов Б. Д. Договорное право России. – М., 1998. – С. 20.

4. Иеринг Р. Цель в праве. Т. 1. – СПб., 1881. – С. 315; Иванов Б. Г. Основные положения теории интереса в свете проблемы отношений человека // Ученые записки ЛГУ. Психология и педагогика. –Л., 1956. – № 214. – С. 64; Бондаренко Л. Интерес как категория политической экономии // Экономические науки. – 1970. – № 8. – С. 19.

5. Нарматов Н.С. Ички ишлар вазирлиги ҳузуридаги “қўриқлаш” бирлашмасининг юридик шахс сифатидаги фаолиятини ҳуқуқий тартибга солиш. Дисс... ю.ф.н. Тошкент-2002. Б.93

6. Нарматов Н.С. Ички ишлар вазирлиги ҳузуридаги “қўриқлаш” бирлашмасининг юридик шахс сифатидаги фаолиятини ҳуқуқий тартибга солиш. Дисс... ю.ф.н. Тошкент-2002. Б.99.

7. Баҳромов. С. Рақамли жамиятда киберхавфсизлик муаммолари. (2025). Global Science Review, 2(1), 217-225. https://global-science-review.com/ojs/index.php/gsr/article/view/2357